

## CHIQINDISIZ KELAJAK-BIZNESGA OCHILGAN YANGI YO'L!

Shamsutdinov.F.A<sup>1</sup> Sharopova M.D<sup>2</sup>

Navoiy Davlat Pedagogika instituti o'qituvchisi,

Biologiya ta'lif yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6793056>

Inson 1 kunlik hayotiy faoliyati davomida 1-1,5 kg maishiy chiqindi hosil qiladi. Maxsus chiqindi idishlariga tashlangan chiqindi uni yo'q qilingunga qadar ancha bosqichni boshdan kechiradi.

Hozirgi kunda maishiy chiqindilar dastlabki yig'ish punktlarida aralash holatda yig'iladi. Qayta yuklash stansiyalarida konteynerlarga zichlab joylashtirilgach oxirgi manzil poligonlarga olib boriladi. Chiqindi poligonlarida chiqindi uyumlari gektar maydonlarni egallab bormoqda. Zichlab jamlangan chiqindining orasida metan gazi yig'iladi, ular issiq ob-havo natijasida alangalanib ketishi mumkin.

Chiqindi poligonlariga borib qolgan inson ona tabiatimizni qanchalik talofat ko'rayotganligiga guvoh bo'lishi mumkin. Respublika bo'yicha 221 dan ziyod poligonlar mavjud bo'lib, ularning maydoni 70-80 hektargacha boradi. Ko'pchilik poligonlarining foydalanish muddati 20-30 yilni tashkil etib, O'zbekiston hududidagi 90% poligonlar to'lib bo'lgan. Aslida poligonlar o'rnila chiqindi uyumlari bor xolos.

Hosil bo'layotgan maishiy chiqindilarning 10% i qayta ishlanadi xolos. Navoiy shahar aholisi 145 ming nafarga yetgan bo'lib, 1 kunda 113 tonna maishiy chiqindi hosil qiladi. Tasavvur qiling 10% qayta ishlanadigan chiqindi 11 tonnani tashkil etadi, qolgan chiqindi esa poligonlardan o'rinn oladi. Biz esa poligonlarning maydonini kattalashtirish, poligonlar uchun yangi maydonlarni tashkil etish haqida bosh qotiramiz.

Chiqindini qayta ishlab chiqarib bo'lmaydim? Chiqindini qayta ishlab chiqarish uchun ularni alohida holatda yig'ish kerak. O'zbekiston hududida aholi chiqindini o'zi saralab tashlamayotgani tufayli biz chiqindilarni tijoriy foydaga yo'naltira olmayabmiz. Respublikamizda ushbu sohani isloq qilish borasida keng ko'lamli ish olib borilyabdi. Jumladan 2022-yil 2-fevral kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida chiqindilar bilan ishlash tizimini takomillashtirish va hududlardagi ekologik holatni yaxshilash 2022-yildagi ustuvor vazifalar yuzasidan bo'lib o'tgan videoselektor yig'ilishida bir qancha masalalar ko'rib chiqildi. Prezidentimiz yig'ilishda mamlakatimizda so'nggi yillarda iqtisodiy o'sish 2% ni tashkil etib, yillik hosil bo'layotgan maishiy chiqindilar miqdori 7 mln tonnaga yetganini aytib o'tdilar. Bundan tashqari maishiy chiqindilarni

yig'ish, saralash, olib chiqish, qayta ishlash va utilizatsiya qilish ahvoli qoniqarli ahvolda emasligi ta'kidlab o'tilgan.

Muammo anchgina, yechim topiladimi? Chiqindilarga nisbatan munosabatimizni yuqoridagi ma'lumotlardan bilib olsak ham bo'ladi. Shu o'rinda savol tug'ilishi mumkin: Maishiy chiqindilarni qanday qilib tijoriy foydaga yo'naltirishimiz mumkin?

Maishiy chiqindilarga tijoriy nuqtayi nazardan yondashish, uni qayta ishlab chiqarish, sotish mumkin. Chiqindi shunchaki ekologik muammo emas, undan iqtisodiyotni rivojlantirishda samarali foydalanish mumkin. Masalan, chiqindilardan hosil bo'ladigan tabiiy gazlardan elektr energiyasini ishlab chiqarish, yoqilg'i sifatida foydalanadigan biogaz olish, tuproq unumdarligini oshiradigan va o'simliklarni hosilini ko'paytirishda yetakchi o'rinda turadigan biogumus olishda ham foydalanish mumkin. Aholi maishiy chiqindilarni o'zi saralasa, ish ancha kamayadi, poligonlarga boradigan chiqindi hajmi qisqaradi. Respublikamizda 2028-yilga qadar bo'lgan muddatda chiqindilarni qayta ishlash jarayonini 60% ga ko'tarish vazifasi qo'yilgan.

Aslida "chiqindi" deya aytish biroz xato, biz unga "ikkilamchi xomashyo" deb qarasak, munosabatimiz ancha o'zgarishi mumkin. Qayta ishlanadigan maishiy ikkilamchi xomashyolarga:

- qog'oz mahsulotlari
- metall buyumlari
- plastik idishlar
- plastmassalar
- shisha kabilarni kiritishimiz mumkin.

Ikkilamchi xomashyoni saralash hamda ularni qayta ishlab chiqarish uchun klaster tizimi tashkil etilgan bo'lib, ularning ish faoliyati qoniqarli holatda emas. Klaster rahbarlari bilan o'tkazilgan suhbatlar asnosida olingan xulosalar ijobiy holatda emas. Jumladan, chiqindi saralash jarayonida avtomat qismlar qog'oz va polietilenni bir-biridan ajrata olmaganligi tufayli ayollarimiz ushbu chiqindilarni qo'lida saralayotgani, maishiy va qurilish chiqindilari aralash holatda yig'ilgani uchun alohida qiluvchi qurilmalarning buzilishi natijasida katta moddiy zarar olib kelayotganligi, aholi to'lovnini o'z vaqtida amlaga oshirmaganligi bois uyma-uy yurib to'lov qilish yuzasidan ogohlantirilayotganligi, eng dolzarb muammo esa O'zbekiston hududida aholi chiqindini to'plash jarayoniga e'tiborsizligi natijasida chiqindining iflosligi klasterlarning hozirgi kundagi ko'rinishi achinarli holda ekanini ko'rsatdi. Barchamiz o'choq olovida qilingan taomlarni sevib iste'mol qilamiz to'g'rimi? O'tin yoqilganidan keyin hosil bo'ladigan kul chiqindini tashib ketuvchi avtomashinalarni yonishiga sabab bo'lgani, buning

natijasida klaster uchun 1,5 mlrd zarar keltirganini tasavvur qila olasizmi? Bir kunda shahar hududida 113 tonna chiqindi hosil bo'lib, uning 10% i qayta ishlanadigan bo'lsa, klaster tizimi nega foyda ko'rmayabdi. Buning asosiy sababi:

- chiqindini saralash jarayoni katta kuch va energiyani talab qilishi
- chiqindini yig'ish jarayoning qimmatga tushishi
- chiqindini maxsus idishlaridan tashib ketuvchi shaxsi noaniq bo'lgan kishilar
- chiqindilarni to'plash joylarining o'zida alohida yig'ilmayotganligi.

Nima uchun chiqindilarni tashib ketuvchi shaxsi noma'lum bo'lgan kishilarni sog'lomlashtirish mexanizmi ishlab chiqilmagan? Ular ham sog'lom turmush tarziga rioya qilishi, kasb yoki hunar egallashi mumkin. Bu borada tegishli tashkilot va muassasalar qayg'urishi hamda yordam qo'lini cho'zmog'i kerak.

Muammoga yechim sifatida ushbu sohaga "Eco collector" qurilmasini ko'rsatishimiz mumkin. Shu o'rinda savol paydo bo'ladi: Bu qurilma nima uchun kerak?

Ikkilamchi xomashyoni oson alohida yig'ish va alohida qilish jarayoning samaradorligini oshirishda hamda bu sohadagi bir qancha muammolarning oldini olishda ushbu qurilma manfaatli yordam bera oladi.

Bozor iqtisodiyotida har bir ikkilamchi xomashyo uchun ma'lum bir narx belgilangan bo'lib:

- plastik idishlar – 3500 so'mdan 6000 so'mgacha
- metal buyumlari – 1200 so'mdan 2200 so'mgacha
- shisha – 80 so'mdan 220 so'mgacha
- qog'oz mahsulotlari – 2200 so'mdan 4000 so'mgacha boradi.

Aholi tomonidan "Eco collector" qurilmasiga yetkazib berilgan chiqindining turi va miqdoriga qarab rag'batlantirish sifatida yetkazib beruvchiga:

- moddiy mablag'
- soliq uchun to'lovlarni
- kommunal to'lovlarni amalgaga oshirish
- xayriya qilish imkoniyati beriladi.

"Eco collector" qurilmasini klaster tizmiga joriy etadigan bo'lsak, yuqoridagi keltirilgan muammolarga yetarlicha yechim topgan bo'lar edik. Shu bilan birgalikda aholi soni zich bo'lgan shahar va markaziy hududlarda qayta ishlanadigan maishiy chiqindilarni (ikkilamchi xomashyo) bonusli yig'ib olish va qayta ishslash jarayoniga yuborish hamda shaharlarimizni ekologik toza va turistik jozibador holatga keltirish mumkin.

“Maishiy chiqindilarni oson alohida yig’ish va qayta ishlab chiqarish samaradorligini oshirish” loyihasining innovatsion tarkibiy qismiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- qayta ishlanadigan maishiy chiqindilarni to’plash joylarida alohida yig’ish;
- maishiy chiqindialrni utilizatsiya qilish jarayonini qisqartirish va alohida qilish jarayoniga sarflanadigan kuch va energiyani tejash;
- qayta ishlanadigan maishiy chiqindini alohida holatda qayta ishalb chiqaruvchi korxonaga taqdim etish;

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, hozirgi vaqtgacha biz “chiqindi” deb atab kelgan xomashyo biz tasavvur etmagan foydani olib kelishi mumkin. Mening asosiy maqsadim esa, aholi o’rtasida ekologik madaniyatni shakllantirish, qayta ishlab chiqarish natijasida O’zbekiston iqtisodiyotiga foyda olib kelishi va eng asosiysi turizm sohasini rivojlantirishda o’z hissamni qo’shish hisoblanadi. Prezidentimiz o’z nutqida ta’kidlaganidek: “Bugun ko’chaga yoki istalgan joyga qarang. Hamma joyda odamalr tashlab ketgan chiqindilarni ko’rasiz. Biz ona yurtimizni muqaddas deymiz. Agar shu yurt, shu tuproq biz uchun muqaddas bo’lsa, nima uchun uni toza-ozoda saqlamaymiz? Odamlarimiz hatto eshigi va hovlisi atrofini tozalashdan, daraxt gul, ko’chat ekib, saranjom-sarishta qilish qo’yishdan erinadigan bo’lin qoldi. Afsuski, ko’pchilik tomoshabin bo’lib qolmoqda”.